
Alisher Navoiy - ilm-fan, san'at va musiqa ahli homiysi



O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, o'zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk qomusiy olim va mutafakkir, ulug' davlat arbobi hamda donishmand, buyuk alloma, ilm-fan, san'at va musiqa ahliga homiy va dunyoga tanilgan komil inson - Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavalludiga 581 yil to'ldi.

Buyuk bobokalonimizning tavallud ayyomlarini butun respublikamiz bo'ylab nishonlash odat tusiga kirib ulgurgan. Har yili 9-fevralni, ayniqsa, xalqimiz zo'r iftixor bilan kutib oladi. An'anaga aylangan mazkur kunda yurtimizdagi barcha ta'lim dargohlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy anjuman hamda uchrashuvlar, navoiyxonlik va she'riyat kechalari o'tkaziladi.

Bunday tadbirlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad esa buyuk mutafakkir bobomizning boy adabiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, yosh avlod ongiga Navoiy asarlarining baddiy xususiyati hamda tarbiyaviy ahamiyatini singdirish va bu orqali ularning ma'naviyatini yanada yuksaltirishdir.

Navoiyning Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, yuksak axloqiy fazilatlar, insoniylik, hamjihatlik, bunyodkorlik hamda halollik ruhi ufurib turgan asarlarini mutolaa qilgan inson, shubhasiz, ma'naviy kamolot sari qadam tashlaydi. Shuning uchun ham, bugun har bir o'g'il-qiz buyuk mutafakkir, yetuk alloma Mir Alisher Navoiy ijodidan xabardor bo'lgani holda uning mazmun mohiyatini chuqur anglamog'i, unda keltirilgan tarbiyaviy o'g'itlarni o'ziga singdirmog'i, ta'bir joiz bo'lsa o'zining hayotiy shioriga aylantirmog'i lozim.

Alisher Navoiy turkiy tilda ijod qila boshlagan birinchi shoir bo'lganligi uchun ham uning o'zbek adabiyoti vujudga kelishi va taraqqiy etishiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Shuningdek, Navoiy turkiy til grammatikasi, turkiy tilda she'r yozish qoidalariga bag'ishlangan asarlari o'tgan asrlardan bugungi kunga qadar boshqa shoir va adabiyotchilarga ilmiy qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Zokir Bazarov,

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ijrochi direktori